

## YUQORI SINF O'QUVCHILARI UCHUN MA'NAVIY-MARIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Qadamov Navro‘zbek Jasurbek o‘g‘li**

Toshkent shahar, Yunusobot tumani tumani 302-sonli maktab  
Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnibosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma’naviy-marifiy tadbirlar orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlar va an’analarni anglatish, jamiyatda faol fuqaro bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. To‘g‘ri tashkil etilgan ma’naviy-marifiy tadbirlar yoshlarni yetuk va komil insonlar sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadbirlar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki yoshlarda milliy qadriyatlar, ahloqiy me’yorlar va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, axloq, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, o‘quvchilar, ma’naviy-marifiy tadbirlar, pedagogika, innovatsion usullar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi – yuqori sifatli ta’lim berish orqali kelajak avlodni yetuk, bilimdon va vatanparvar shaxslar qilib tarbiyalashdir. Ta’lim jarayonida tarbiyaning o‘rni juda muhim bo‘lib, bu yo‘nalishda qator chora-tadbirlar ko‘rilmoxqda.

Tarbiya – bu faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxslar qilib tarbiyalash demakdir. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kelajak avlodning barkamol va komil insonlar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Ushbu islohotlar natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimida tarbiyaning o‘rni yanada mustahkamlanmoqda. Bu orqali quyidagi natjalarga erishilmoqda:

- o‘quvchilar ma’naviy va axloqiy jihatdan rivojlanmoqda;
- vatanparvarlik tuyg‘usi kuchaymoqda;
- ijtimoiy faollik va jamoatchilik ishlarida ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlanmoqda;
- ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda;
- zamonaviy texnologiyalar orqali tarbiya jarayoni samaradorligi oshmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida tarbiya masalalari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- ta’lim dasturlarida tarbiya elementlarining katta o‘rinni egallashi (ta’lim dasturlariga tarbiya mavzularini kiritish, axloqiy va ma’naviy tarbiya mavzularini darsliklar va qo‘sishchalar materiallar orqali yoritish);
- o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimida tarbiya masalasining dolzarblik masalasi (o‘qituvchilarning tarbiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus kurslar, seminarlar va treninglar tashkil etish);
- ma’naviy-marifiy tadbirlarning ko‘payishi (maktablarda ma’naviy-marifiy tadbirlar, festivallar, ko‘rgazmalar, konkurslar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish);
- oila va maktab hamkorligining to‘liq yo‘lga qo‘yilishi (ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularni tarbiya jarayoniga jalb etish, ota-onalar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etish);
- dars jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash (elektron resurslar, interaktiv platformalar va boshqa zamonaviy texnologiyalar orqali tarbiya jarayonini samarali tashkil etish).

Biroq, bugungi dunyoda axborotlarning tez eskirishi, Internetning rivojlanishi, sunniiy intellektning jadal taraqqiy etishi hamda axborotlar huruji ayniqsa, bitiruvchilar ongida o‘z

salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oldini olish va o'quvchilarining ma'naviyatini boyitish uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmun jihatdan zamonga moslash hamda o'quvchilarining ehtiyoji va qiziqishi asosida olib borish talab etilmoqda. Chunki ma'naviy-marifiy tadbirlar yuqori sinf o'quvchilarining tarbiyaviy va ma'naviy rivojlanishida va kasbga yo'naltishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilar milliy qadriyatlar va an'analarni anglab, jamiyatda faol fuqaro bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, tadbirlar o'quvchilarining axloqiy me'yorlarga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. To'g'ri tashkil etilgan ma'naviy-marifiy tadbirlar yoshlarni yetuk va komil insonlar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu tadbirlar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki yoshlarda milliy qadriyatlar, ahloqiy me'yorlar va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kasbga yo'naltishda muhim ahamiyatga ega. Tadbirlarning quyidagi turlari mavjud:

- vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar (o'quvchilarining vatanparvarlik ruhini oshirishga qaratilgan tadbirlar, masalan, mustaqillik bayramlari, milliy qahramonlar xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar);
- madaniy tadbirlar (milliy madaniyat va an'analarni tanishtirish va ulug'lashga qaratilgan tadbirlar, masalan, milliy bayramlar, milliy kiyimlar ko'rgazmasi, xalq o'yinlari);
- axloqiy tarbiya tadbirlari (axloqiy qadriyatlar va ahloqiy me'yorlarni o'rganishga qaratilgan tadbirlar, masalan, axloqiy mavzularda ma'ruzalar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish);
- ijodiy va ilmiy tadbirlar (o'quvchilarining ijodiy va ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar, masalan, ilmiy konferensiyalar, ijodiy tanlovlari, ko'rgazmalar);
- kasbga yo'naltiruvchi tadbirlar. Kasbga yo'naltiruvchi tadbirlar orqali o'quvchilarni kelajakda malakali kasb egasi bo'lishlari uchun zarur ko'nikmalar va bilimlar bilan ta'minlaydi. Tadbirlarni samarali tashkil etish uchun maxsus metodik yondashuvlar va innovatsion usullar talab qilinadi.

**Interaktiv metodlar asosida tashkil etiladigan tadbirlar.** Bu tadbirlarda o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish orqali, ular o'rtasida muloqot va fikr almashish imkoniyatini yaratish lozim. Buning uchun "G'oyalar hujumi", "Mening fikrim" kabi usullarni qo'llash mumkin.

**Ko'rgazma vositalar asosida tashkil etiladigan tadbirlar.** Ko'rgazma vositalari asosida tashkil etiladigan tadbirlar o'quvchilar uchun ma'lumotlarni vizual tarzda yetkazishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadbirlar o'quvchilarining e'tiborini jalb qilish, mavzuga qiziqishni oshirish va materialni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Tadbirlarni tashkil etishda turli xil ko'rgazma vositalaridan foydalanish mumkin.

Ma'naviy-marifiy tadbirlarning o'quvchilarga ta'siri quyidagilardan iborat:

- tadbirlar o'quvchilarining ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi, ularni o'z ustida ishslashga undaydi;
- o'quvchilar tadbirlar orqali jamiyatda muloqot qilish, muammolarni hal qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar orqali o'quvchilar vatanga sadoqatli bo'lish va milliy qadriyatlarni ulug'lashni o'rganadi;
- madaniy tadbirlar orqali o'quvchilar milliy madaniyat va an'analarni churroq anglaydi, ularni hurmat qilishni o'rganadi;
- ijodiy va ilmiy tadbirlar orqali o'quvchilar o'z qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijodiy va ilmiy ishlarda muvaffaqiyat qozonishga intiladi.

Zero, ma'naviy-marifiy tadbirlar yuqori sinf o'quvchilarining tarbiyaviy va ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilar milliy qadriyatlar va an'analarni anglab, jamiyatda faol fuqaro bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek,

tadbirlar o‘quvchilarning axloqiy me’yorlarga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan ma’naviy-marifiy tadbirlar yoshlarni yetuk va komil insonlar sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov, A. A. “Ma’naviy tarbiya asoslari”. Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Xaydarov, M. S. “Ta’lim va tarbiya tizimi”. Toshkent: Fan, 2013. Ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.
3. Hodjayev, S. H. "Axloqiy tarbiya." Toshkent: O‘qituvchi, 2007. Axloqiy tarbiya va uning pedagogik asoslari.
4. Hattie, John. "Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement." London: Routledge, 2009.